

**KREDIT MODUL TIZIMIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI
TALABALARNI O'QITISHNING DOLZARBLIGI**

**АКТУАЛЬНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ
ЗАВЕДЕНИЯХ ПО СИСТЕМЕ КРЕДИТНЫХ МОДУЛЕЙ**

**THE RELEVANCE OF TRAINING STUDENTS IN HIGHER EDUCATION
INSTITUTIONS IN THE CREDIT MODULE SYSTEM**

Bo'riboeva Dilraxon Norboy qizi

Guliston davlat universiteti Amaliy san'at va dizayn kafedrasida o'qituvchisi

Борибоева Дилрабохон Норбой кизи

Гулистанский государственный университет Преподаватель

кафедры прикладного искусства и дизайна

Boriboyeva Dilrabokhon Norboy qizi

Guliston State University Teacher of the Department of Applied Arts and Design

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit modul tizimi haqida tushunchalar yoritilganligi bilan bir qatorda ushbu tizimda talaba shahsini individual yo'nalganligini oshirish, ta'limni talaba shahsi o'zlashtirish qobiliyatiga moslashtirib tashkil etish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kredit modul tizimi, individual ta'lim, ta'limda shaffoflikka erishish, ta'limda moslashuvchanlik, talabaga yo'naltirgan ta'lim, talaba shaxsi.

Аннотация: В данной статье, помимо освещения концепций системы кредитных модулей, рассматриваются способы, которыми эта система повышает индивидуальную ориентацию студента и организует обучение в соответствии со способностями студента к обучению.

Ключевые слова: система кредитных модулей, индивидуальное обучение, обеспечение прозрачности в образовании, гибкость в образовании, студентоцентрированное образование, личность студента.

Abstract: This article, in addition to highlighting the concepts of the credit module system, discusses the ways in which this system increases the individual orientation of the student, and organizes education in accordance with the student's ability to learn.

Keywords: credit module system, individual education, achieving transparency in education, flexibility in education, student-centered education, student personality.

Ta'limning globallashuvi va xalqarolashuvi oliy ta'limda o'qitish jarayonini tashkil etish tizimiga ham o'zgartirishlar kiritishni talab etmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash talabalarning maksimal mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, egallangan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llay olish layoqatini rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa, oliy ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga javob beradigan pedagogik tizim asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish ustuvor vazifa etib belgilandi. Pedagogika Oliy ta'lim muassasalarida esa 2020-2021 o'quv yilidan mazkur tizim asosida o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berildi .

Ta'limdagi islohotlar kelajakda kata samaralar berishini rivojlangan mamlakatlar tajribasi yaqqol isbotlab turibdi. Bugun mamlakatimizda aynan ta'lim sohasiga yangicha boshqaruv tizimlarini joriy etish, ta'lim jarayonini tashkil etish darajasini jahon tajribasi asosida rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va kelajak mutaxassislarining mustaqilligi va mas'uliyatini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Ayni shu maqsadlarni ko'zda tutgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" Kontsepsiyasida oliy ta'lim muassasalarining deyarli 85 %i 2030 yilgacha o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazishi ustuvor vazifa etib belgilandi. Oliy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan mazkur bosh konsepsiyada yaqin istiqbolda Respublikadagi kamida ta'lim muassasalarini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rinidagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritishga erishish maqsad etib belgilab qo'yildi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida esa 2020-2021 o'quv yilidan mazkur tizim asosida o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yildi. Bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimi ta'lim falsafasining o'zgarish bosqichida turganligidan dalolat beradi. Bugun zamonaviy ta'limning takomillashgan tizimi deya ta'riflanayotgan o'qitishning modulli-kredit ko'rinishi o'zlashtirishni nazorat qiluvchi turdan o'zini o'zi nazorat qiluvchi – rag'batlantiruvchi turga o'tishni anglatadi, nazarimizda.

O'qitishning kredit-modul tizimi – modulli o'qitish texnologiyalari va ECTS (ingl. European Credit Transfer and Accumulation System – kursdan kursga o'tish va ball to'plashning Evropa tizimi) sinov kreditlari birligida amalga oshiriladigan o'quv jarayonini tashkil etish modeli;

"Kredit" tushunchasi o'zida kasbiy tayyorgarlik mazmunida o'quv fanlari ulushini hisobga olish imkonini beruvchi miqdoriy tavsifni o'zida ifoda etadi. Kredit u yoki bu kursni yoki yaxlitlikda ma'lum bir ta'lim dasturini o'zlashtirish uchun zarur o'quv yuklamasi va unga ajratilgan vaqtni aniqlash uchun zarur.

Kredit-modul tizimi – bu modul ta’lim texnologiyalari va ta’lim oluvchilarning modul mazmunini o’zlashtirishi uchun zarur bo’lgan o’quv yuklamasini o’lchash birligi sifatidagi kreditlar asosida o’quv jarayonini tashkil etish modelidir.

Kredit-modul tizimida uning ikkita jihatiga e’tibor qaratiladi:

- 1) ta’lim oluvchilarning mustaqil ishini tashkil etish;
- 2) o’quv jarayonida kredit-modul tizimi va ta’lim oluvchilarning o’quv yutuqlarini baholashning shaffof tizimini joriy etish.

Oliy ta’limga nisbatan qo’llanilganda “modul” deganda o’quv fanlari bo’yicha ta’lim dasturlarini mustaqil, mantiqiy tugallangan qismi nazarda tutiladi. Modul fanning ma’lum tugallangan qismi yoki yaxlitlikda fanning o’zi; modul o’zida bir qancha kurslarni qamrab olishi mumkin. Modul tarkibiga kiruvchi informatsiya didaktik maqsadga erishish uchun aniq tuzilish va yaxlitlikka ega keng ko’lamdagi murakkablikni aks ettiradi. Modul tuzilmasida majburiy tayanch komponent va variativ qism mavjud bo’ladi. Modul ma’lum bir fan sohasi haqidagi yaxlit tasavvurlarni hosil qiladi va mazkur modulni o’zlashtirish yakunida talaba o’zida namoyon qilishi lozim bo’lgan aniq kompetensiyalarni belgilash imkonini beradi.

Har bir talaba mustaqil yoki maslahatchi (tyutor) yordamida namunaviy reja asosida o’zining yillik individual rejasini tuzadi. Unga informatsion paket (tanyach o’quv rejasi (elektiv fanlar katoligi bilan birga), o’quv dasturlari, o’quv mashg’ulotlari turlari, maslahatlar grafigi) bilan tanishish imkoniyati beriladi.

Ta’lim sifati – ta’lim jarayonining turli qatnashchilarini o’quv muassasasi tomonidan ko’rsatilgan ta’lim xizmatlaridan qoniqish darajasi yoki ta’limda qo’yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi .

O’tgan asrning 60-yillarida modulli o’qitish avvalo AQSH, Buyuk Britaniya va Kanadada keng yoyila boshladi. YUNESKOning 1972-yilda Tokioda o’tkazilgan xalqaro konferensiyasida modul tizimi uzluksiz ta’lim tizimining (kattalar ta’limi) eng samarali

tarmog'i sifatida tavsiya qilingan edi. Keyinchalik bu nafaqat kattalar, balki o'quvchiyoshlar ta'limida ham keng tarqaldi. O'quv jarayonini modulli yondashuv asosida tashkil etish orqali ta'lim sifatini ta'minlash, ta'lim natijalarining o'zaro tan olinishiga hamda talabalar mobilligiga erishish borasida Bolonya jarayoni ishtirokchilaridan Fransiya, Daniya, Shvedsiya, Buyuk Britaniya kabi Yevropa davlatlari, Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya, Ukraina, Qozog'iston Respublikasi kabi MDH mamlakatlari o'z ta'lim tizimida bugungi kunda yuqori natijalarga erishmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimining kredit-modul ta'lim sistemasiga o'tishning ustuvor tomonlari quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim sohasida O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan munosabatlari kengaytiriladi;
- jahon ta'lim sohasidagi izolyasiya xavfini bartaraf etiladi;
- Yevropa mamlakatlaridagi talabalar, professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarni fikr almashish istiqbollari kengaytiriladi;
- xorijlik talabalarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlari kengaytiriladi (O'zbekiston oliy ta'limining eksporti);
- yangi o'quv texnologiyalari, o'quv jarayoni loyihalarini ishlab chiqish va o'quv jarayonini tashkil qilishning oqilona shakllarini qo'llash va ta'lim va o'qitishning sifatini keskin oshirilishiga olib keladi;
- mehnat bozorining talablari hisobga olinadi.

Ta'lim kredit-modul texnologiyasida talabalarning mustaqil ta'limiga bo'lgan talabni kuchaytiradi, chunki, uy vazifasi ham baholanishi maqsadga muvafiqdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim tizimi rivojlanishidagi kredit-kredit ta'lim sistemasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga joriy etilishi quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

- mutaxassislarni jahon standartlari darajasida tayyorlash imkoniyati;

- o‘quv jarayonini tezkor va egiluvchan tarzda rejalashtirish;
- auditoriya va mustaqil ishlash orasida optimal munosabat o‘rnatish;
- o‘quvchida mustaqil ta’lim olishga va mustaqil rivojlanishga ko‘nikma hosil qilish;
- talabalarning bilim olishda ularga mustaqil ijodkorona yondashish malakasini va istagini singdirish;
- kredit va diplomlarni ikki tomonlama tan olish, talabalarga dars berishni hamkorlikda tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish” tog‘risidagi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni
2. M. Tojiev, A. J. Xurramov. Oliy ta’limda o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga o‘tkazish – ta’lim sifatining kafolati // Scientific progress. 2020
3. Уразалиева Р.И. Кредитно-модульная система организации обучения как фактор формирования умений самообразовательности студента: дис. ...канд. пед. наук. – Оренбург, 2010. – 98с
4. Мирзоев Р.Р. Педагогические аспекты подготовки преподавателей к работе в условиях кредитной системы образования: дис. ... канд. пед. наук. – Курган-Тюбе, 2010. – 189 с
5. Norboy, Boriboyeva Dilrabakhon. "DEVELOPMENT OF STUDENTS'GRAPHIC COMPETENCE IN TRAINING ENGINEERING GRAPHICS." International Journal of Pedagogics 3.12 (2023): 145-147.
6. Alimjanovna Y. S. TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS

//CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – T. 5. – №. 02. – С. 48-58.

7. KILIÇ ATEŞ S., BERİKBAEV A. A. Pedagogical competencies in art education and the impact of educational reforms: The case of Uzbekista //Balikesir University Journal of Social Sciences Institute. – 2025. – T. 28. – №. 53.

8. Bo‘riboeva, D. N. "Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishning innovatsion usuli." Buxoro davlat universitetining "Pedagogik mahorat" ilmiy nazariy va metodik jurnali 2 (2023).

9. Usmanov Botir Allaberdiyevich. (2025). TASVIRIY SAN’ATDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY YONDASHUV VA YANGI IMKONIYATLAR. IQRO INDEXING, 16(01), 374-378.

10. Norboy, Boriboyeva Dilrabakhon. "DEVELOPMENT OF STUDENTS'GRAPHIC COMPETENCE USING INTERACTIVE METHODS." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 5.02 (2024): 44-47.

11. Bo‘riboeva, D. N. "Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda zamonaviy grafik dasturlardan foydalanish metodikasi." PEDAGOGIKA Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy–nazariy va metodik jurnal (2023).

12. Dilrabakhon, Boriboyeva. "Development Of Students' Graphic Competence in Training Engineering Graphics." Journal of Pedagogical Inventions and Practices 26 (2023): 19-20.

13. Yakubova, Nafisa Odiljanovna. "THE ROLE AND IMPORTANCE OF GRAPHIC MODES IN STUDENTS-INCREASING THE IMAGINATION OF CUTTING." Актуальные научные исследования в современном мире 4-2 (2021): 268-272.